


# **BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**



**MUNDARLJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS****TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Бушуй Т.А.</b>	Краудсорсинговый словарь туристических терминов	<b>4</b>
<b>Фалеева Е.В.</b>	Лексические инновации и их семантические типы в современных словарях английского языка	<b>10</b>
<b>Xazratova I.F.</b>	O'zbek va ingliz tillarida "adolat" konseptining etimologik va kulturologik tadqiqi	<b>15</b>
<b>Salimova D.F.</b>	O'zbek bolalarida yangi so'z o'zlashtirish jarayoni tadqiqi	<b>19</b>
<b>Safarova O.M.</b>	Farmatsevtika terminining shakllanishi	<b>23</b>
<b>Odilova N.N.</b>	Ertak va afsonalardagi mifonimlar va ularning qiyosiy tadqiqi	<b>28</b>
<b>Latifova M.Y., Asadov T.H.</b>	O'tkir Hoshimov asarlaridagi -day/dek affiksli turg'un va erkin o'xshatishlar tadqiqi	<b>32</b>
<b>Jo'raeva L.J.</b>	Navoiy asarlaridagi xalq-urug' nomlarining lingvokulturologik tadqiqi	<b>36</b>
<b>Ganiyeva M.</b>	Functional aspects of translation of internet neologisms in english and uzbek	<b>40</b>
<b>Faleeva A.V.</b>	Socio-cultural and territorial features of variations in the component composition of english spoken expressions	<b>44</b>
<b>Azimova A.O'.</b>	Toshpo'lat Ahmad she'riyatidagi milliylikni ifodalovchi til va nutq birliklari haqida	<b>49</b>
<b>Asadov T.H., Saidova X.F.</b>	O'zbek lug'at qatlamidagi neologik shaxs otlari va ularning tarkibiy-mazmuniy tuzilish	<b>54</b>
<b>Turdimurodov S.E.</b>	Fe'l evfemik birliklarning til va nutqdagi o'rni	<b>59</b>
<b>Soatova M.S.</b>	Harbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari	<b>64</b>
<b>Shamsiddinova S.B.</b>	"Gilgamish" eposidagi to'fon qissasi hayot va o'lim ramzi sifatida	<b>70</b>
<b>Ruziyeva N.X.</b>	Nutqiy muloqotda xushmuomalalik, evfimizm va feysning o'rni	<b>74</b>
<b>Jo'rayeva N.</b>	Evfemizmlar o'zbek ayollari nutqi misolida	<b>79</b>
<b>Bafoyeva N.A.</b>	Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida shaxs nomlari tarkibida qo'llangan qo'shimchalar tahlili	<b>83</b>

## ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA SHAXS NOMLARI TARKIBIDA QO'LLANGAN QO'SHIMCHALAR TAHLILI

Bafoyeva Nigora Azimovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,  
BuxDU mustaqil izlanuvchisi  
[bafoyevanigora@buxdpi.uz](mailto:bafoyevanigora@buxdpi.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o'zining «O'tkan kunlar» romanida ham o'rini foydalanganligi va antropoymik indikatorlarning uslubiy-semantic xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** antropoym, antropoymik indikatorlar, nom, Abdulla Qodiriy, «O'tkan kunlar», uslubiyat, antropoindikator turlari.

### АНАЛИЗ СУФФИКСОВ ЛИЧНЫХ ИМЕН В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДИРИ “МИНУВШИЕ ДНИ”

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются уместное употребление Абдуллы Кадири имен, образованных при участии показателей, в его романе «Минувшие дни» и стилистико-семантические особенности антропонимических показателей.

**Ключевые слова:** антропоним, антропонимические показатели, имя, Абдулла Кадири, «Минувшие дни», рост, типы антропоиндикаторов.

### ANALYSIS OF SUFFIXES USED IN PERSONAL NAMES IN ABDULLA QADIRI'S NOVEL “BYGONE DAYS”

**Abstract.** In this article, the appropriate use of nouns formed with the participation of indicators in Abdulla Qadiri's novel "Past Days" and the stylistic-semantic features of anthroponymic indicators are scientifically analyzed.

**Keywords:** anthroponym, anthroponymic indicators, name, Abdulla Kadiri, "Bygone Days", growth, types of anthroponymic indicators.

O'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilishidan maqsad – respublikamiz hayotida o'zbek tilining ijtimoiy mavqeini tiklash, uning qo'llanish doirasini yanada kengaytirish va uni o'rganishni izchillik bilan yo'lga qo'yishdan iborat. Ma'lumki, dunyo tamaddunida milliy taraqqiyot, milliy ong, milliy tafakkur, milliy mentalitet, milliy nom va shaxs munosabati – har bir xalqning ona tilisi mavqeyi va nufuzi rivoj topishida ko'zga yaqqol tashlanadi. Xususan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda" [1:1].

Zero, xalqimiz til boyligini o'ziga mujassamlashtirgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yozma adabiyot tilini chuqr o'rganish, shu asosda ma'lum bir

so'z san'atkoringin so'z qo'llash uslubini, mahoratini izchil dadqiq qilish orqali bu maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Badiiy adabiyotda til juda kata rol o'ynaydi. Badiiy asarda tilning hal qiluvchi rol o'ynashi hamda asar tilining go'zal va sermazmun bo'lishi lozimligi to'g'risida o'zbek yozuvchilar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadreddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'fur G'ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon va boshqa yirik so'z ustalari qimmatli fikrlar bildirganlar.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari onomastikasi salmog'ini tahlil etar ekanmiz, asarda mavjud onomastik birliklarning o'ziga xos semantic-uslubiy, nominativ va konnotativ xususiyatlari, shaxs nomlari tarkibidagi indikatorlarning o'rni, mavjud toponimlar qatlami va ularning "O'tkan kunlar" asari tarkibidagi o'rni o'ziga xos alohida vazifaga ega ekanligini ushbu ishimizda ma'lum ma'noda yoritishga harakat qildik.

Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ergan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlod, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo'q. Ismlar jamiyatda muhim ma'noviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday

## LINGUISTICS

shaklda bo'lmasin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi.U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi "dunyoga kelishi" va "yashash joyi" ga ega.

Antroponiimlar tizimini tilshunoslikda til doirasida ilmiy o'rganish va tahlil qilish, ularning leksikografiyada ifodalaniishi, turlar bo'yicha tizimga solish, tasnif qililish, turli tabiatli tillardagi antroponiimlarni chog'ishtirish orqali o'ziga xos va o'xshash jihatlarini aniqlash zarur masalalar sirasiga kiradi. Mazkur masalalarni tadqiq etish antroponiimlarning o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatishda, tilga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilayotgan bir davrda madaniyatlararo muloqotdag'i ayrim to'siqlarni bartaraf etishda hamda tillarni o'qitish va o'rganishda o'rinni xizmat qiladi. Asosan, badiiy asar tili, onomastik birliklar orqali ta'sir etish masalalari o'z ilmiy yechimlarini hali hamon kutmoqda. Bizning tadqiqodimiz obyekti hisoblangan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romasi onomastikasi bu o'rinda diqqatga sazovor manba. Chunki muallif har bir qahramoniga shunchaki nom tanlamagan.

Antroponiimlarning vujudga kelishida antroponiimik indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Indikatorlar (lotinch: «ko'rsatgich») antroponiimlar tizimida alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu xususda prof. Z.Do'simovning maqolasi [2:34] hamda I.Xudoynazarovning nomzodlik dissertatsiyalarida atroflicha ma'lumot berilgan [2: 20-21]. Ular kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlab, ma'no ifodalaydi. Antroponiimlarda indikatorlik vazifasini turli affiksoid va umumlashtiruvchi tavsifiy so'zlar bajaradi. Masalan, qul, bek, oy, jon, gul, beka, niso, xon kabilar.

Antroponiimik indikatorning ichki va tashqi kabi ko'rinishlari mavjudligi qator tadqiqotlarda sharhlangan [3:23]. Ichki indikatorlar deganda, antroponiim o'zining antroponiim ekanligini o'z-o'zidan ko'rsatib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi, yozuvda antroponiimlarning bosh harf bilan yozilishi, antroponiimlarning ma'lum bir qurshovlarda uchrashi (Otabel keldi), nutqiy qurshovlarda o'zining ma'nosiga ko'ra antroponiimlarning qanday ichki guruhlarga xos ekanligini ko'rsatib turishi (Kumush, Xushro'y-ayollar ismi). Tashqi indikatorlar turli xil qo'shimcha affiksoid va ma'no umumlashgan so'zlar bo'lib, ular ko'pincha antroponiimlar bilan birika oladi.

Indikatorlarning deyarli barchasi konnotativ ma'noga ega. Bunday ma'no ayrim so'z va affiksoidlarning tarkibida joylashgan bo'lib, o'zi birikib kelayotgan ismga turli xil qo'shimcha ma'nolami kiritishga xizmat qiladi.

Bu kabi qo'shimcha ma'nolar sirasiga kichraytirish, sevish, erkalash, hurmat, iltifot, mehribonlik, yaqinlik kabi qator ijobji bahol hamda kamsitish, masxaralash, past nazar bilan qarash kabi salbiy bahol ma'nolarini kiritish mumkin. Bu haqida Ya.Gremm yozadi «Erkalatish formalari faqatgina kamchilik ma'nosini emas, balki iltifot, mehribonchilik, erkalatish ma'nolarini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham biz kichraytirish formalarini ulug', muqaddas, hatto dahshatli predmetlarga ham ularga yaqinlashish, uning muruvvatini, iltifotini qozonish uchun qo'shamiz»[4:41].

«O'tgan kunlar» romanida antroponiimik indikatorlarning quyidagi ko'rinishlarini uchratish mumkin:

1. Ayol ismiga xos antropoindikator.

– bibi (yuqori sinf, aslzodalar avlodiga mansub qiz, ayol; mo'tabar, baland martabali ayol): Kumushbibi, Oltinbibi, Oyshabibi, Xonimbibi, Xushro'ybibi. Masalan, Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Oyshabibi qizig'a ma'nolik qilib bir qarab oldi: – Bolam, axir ikki og'iz gap eshit-chi oldin! — dedi.

– bonu (shohlar, sultonlar avlodiga mansub ayol; aslzoda ayol):

Mohinabonu. Masalan, O'zbek oyimning ko'ngil tortar qo'shnilaridan Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonular ham yasanib-tusanib.

– gul (guldek ko'rkam, go'zal; zebo): Anorgul. Masalan, Anorgulning qo'lidag'i dutor «O'rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi.

– oyim (oliy nasab avlodga mansub qiz, ayol): Oftoboyim, Roziyaoyim. Masalan,

– Xush kelibsiz, – dedi Oftoboyim...

2. Erkaklar ismiga xos antropoindikator:

– boy (asli boylar, badavlatlar avlodiga mansublik; boy-badavlat, hukmon janob): Sariboy. Masalan, Albatta yodingizda bo'lsa kerak, hov, biz Sariboyning do'konida choy ichishib olturg'an edik-ku, yodingizga tushdimi?

– mirza (ziyoli, qalam ahli; kotib, sarkotib, munshiy): Mirzakarim. Masalan, – Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor.

– nor 1) xol, qizil xol; 2) bir o'rkachli erkak tuyu – qudratli, baquvvat; 3) o't, olov, alanga): Normuhammad. Masalan, Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yogurtirdi.

## LINGUISTICS

— oxund (turkiysha: og'a, janob; forscha: xudovand, janob, xudojo'y; ism tarkibida: o'qimishli, ilmli kishi): Solihbek oxund. Masalan, Biz Toshkand ulamo va ashrofidin domla Solihbek oxund, mulla Yusufbek hoji, sarkardalardin Qosim va Niyoz qushbegilar, Karimqul va Muhammadrajab qo'rishiham Qambar sharbatdorlar bir orag'a o'turishib voqi'an Musulmonqulning zulm va taaddasi Xo'qand fuqarosi va ayni zamonda bo'lak shahar va qishloq, kent aholisi ustiga ham bag'oyat oshib borg'anlig'ini muzokara va mukolama qilishdiq.

— qul (xizmatchi, g'ulom, qul; itoatgo'y, tobe; sig'inuvchi): Karimqul, Musulmonqul kabi. Masalan, Musulmonqul qo'shining boshida bo'ladi...

Bugungi kunda qul so'zi o'zining dastlabki ma'nosida qo'llanilmay, balki erkalash suyish ma'nolarida, shuningdek, turdosh otlarni atoqli otlarga aylantirishga ham xizmat qiladi.

— bek 1) hukmdor, hokim, boshliq; o'tnishda maxsus mansablardan birining nomi; 2) —bek/berk ma'nrsida mustahkam, himoya qilingan, kuchli, qudratli): Azizbek, Yodgorbek, Komilbek, Nusratbek, Otabek, Yusufbek kabi. Masalan, Azizbek qushbeginninggapi ikki qila olmadi.

«O'tkan kunlar» asaridagi Otabek antroponomi tarixan ikki qismdan iborat bo'lgan: Ota va bek. Lekin vaqt o'tishi bilan bek «ota» o'zagi bilan to'liq qo'shilish ketgan. Shuning uchun qator nomlarda ajratilishi mumkin bo'lgan bek bo'lagi (Nusrat/bek, Komil/bek, Yodgor/bek, Aziz/bek, Yusuf/bek), Otabek antroponomida ajratilmaydi.

— jon (ruh, tiriklik, hayot): Ahmadjon, Qayumjon kabi. Masalan, Manglayim sho'rlik ekan, bolam, Saodatning Qayumjon otliq bir akasi bor edi, yoshi yettiga chiqib, otasi rahmatlik endigina to'y qilaman deb turg'anda, qizamiq degan bir

falakat kasal bilan og'rib dunyodan o'tdi, buning ustiga Saodatning otasi ham marhum bo'lib bizlarni ora yo'lda qoldirib ketdi.

— xon (hukmdor, boshliq, podshoh): Sherelixon, Murodxon, Muhammadxon, O'rmonxon kabi. Masalan, Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sherelixonni o'ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo'y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi.

3. Ayol va erkaklar ismlariga qo'shilishiga ko'ra betaraf bo'lgan antropoindikatorlar.

Bularga —jon, —xon, —bek affiksoidlarini kiritish mumkin. Bu indikatorlar o'rni bilan har ikkala jins vakillari nomlariga qo'shiladi. Ammo asarda faqat —bek indikatori uchraydi.

—bek affiksoidi ham yuqorida xususiyatlarga ega. Asar antropoindikatorlarini tahlil etish davomida ayol ismiga qo'shilish holatlarini ham kuzatdik.

“O'tgan kunlar” asaridagi Otabek antroponomi tarixan ikki qismdan iborat bo'lgan: Ota va bek. Lekin vaqt o'tishi bilan bek “ota” o'zagi bilan to'liq qo'shilish ketgan. Shuning uchun qator nomlarda ajratilishi mumkin bo'lgan bek bo'lagi (Nusrat/bek, Komil/bek, Yodgor/bek, Aziz/bek, Yusuf/bek), Otabek antroponomida ajratilmaydi.

Bu kabi antropoindikatorlar ayollar ismida ham mavjud: Sorabek, Xushro'ybek. Masalan, *O'n oltinchi kun mehmon oyog'i tovsillanib, O'zbek oyim Sorabek oyimga o'zlarining borishlaridan xabar yubordi va Hasanaliga aravani qo'shmoqqa buyurdi*.

Bu o'rinda ham Sorabek antroponomi ajralmaydi, ammo quyidagi gapda Xushro'yning bekka qiyoslangani yaqqol sezilib turadi:

*Nusratbek bo'lsa ko'chaga chiqq'anda beklik da'vosini qilib, uyiga kirganda Xushro'ybekka mute'.*

Ba'zi o'rinnlarda asosga bir necha antropoindikator qo'shilish holatlari ham kuzatiladi. Bu indikatorlar —affiks va —sufiks holatidagi indikatorlardir. Ular ayol va erkaklar ismida ham qo'shilish hollarini kuzatdik. Yuqorida tahlil qilganimizdek, bu indikatorlar qahramonlar “men”nini ,ruhuyatini ochib berishga xizmat qilgan.

— Ancha turdik aylanay, **buv Zaynab**, — dedi Oftob oyim, — endi navbat sizlarning borishlariningz'a goldi.

— **Zaynabnisa** yaxshi ko'rgan tomoqni qilingiz, — dedi Kumush.

*Zaynabka qarab: «Bolam Zaynab otin! Sizdan hali yoshlik g'ururi ketmagan, lekin manim bolam bo'lg'an-lig'ingizni siz ham unutmang!»*

Ba'zi misollarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Kumush → oy, xonim, nisa, bibi.

**mirza** → Karim → qul, bek, boy.

**buv** → Zaynab → nisa, otin.

Mohira → bonu, oyim.

Buv → Oftob → oyim

O'zbekcha ismlar familiya bilan ishlatalganda "o'g'li", "qizi" so'z formalari bilan birga keladi. Ota ismlariga Kumushbibi binti Mirzakarim Marg'inoniy, Otobek Yusufbek hoji o'g'li, Muhammadrahim Yo'ldosh o'g'li kabilalar misol bo'ladi.

*Kumushbibi binti Mirzakarim boyoga-zavji toshkandlik Otobek Yusufbek hoji o'g'lidan.*

*Domlaning: "Sizkim, Kumushbibi Mirzakarim qizi, o'zingizni toshkandlik, musulmon Otobek Yusufbek hoji o'g'liga bag'ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo'ldosh o'g'liga topshirdingizmi?" - degan so'rog'i olti, etti qaytarilgandan keyin, shunda ham yangalar qistog'i ostida arang uning rizolig'i olindi.*

Ushbu misollarda "o'g'li", "qizi" so'z formalarining qo'llanishi ismlarda milliylik xususiyatini yaqqol aks ettirib turibdi.

Antroponimik tadqiqodlarda ruscha familiyalar esa -ev,-eva,-ov,-ovna forma yasovchilari bilan hosil qilinishi. Ota ismining yaqin kunlargacha kishi ismi bilan birgalikda qo'llanganlig va keyinchalik rus tili ta'sirida ota ismi ham kishi ismi bilan mustaqil ishlatalishi uchray boshlaganligi ta'kidlab o'tilgan.

Sanalganlardan oyim, qul, oxund kabilar hozirgi kun nuqtai nazaridan keng iste'moldan chiqayotganligi sezilmoxda.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, o'zbek antroponimiyasida turli indikatorlar o'tmish davrlardan beri keng qo'llanib kelinmoqda. Indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o'zining «O'tkan kunlar» romanida ham o'rinni foydalangan. Bu tipdagi antroponimlar asar g'oyasini ochib berish hamda davr ruhini tasvirlashda o'ziga xos vosita sanaladi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 4- oktyabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori // "Ma'rifat" gazetasi. – Toshkent, 2019 yil 5 oktyabr. – №77.
2. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar//O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 5-son.
3. Xudoynazarov I.I. Antroponimlarning til tizimidagi o'rni va ularning semantik- uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida). Filol.fanl.nomz.diss... –T.: 1998. –B.43-45.
4. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. –B.16.
5. Qo'ng'uров R. Onomastika va uning predmeti// O'zbek tilining grammatic qurilishi va dialektologiyasi masalalari. To'plam. –Samarqand, 1972. – B.41-48.
6. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanı. «Adabiy barqaror asarlar turkumi», – T., 2019.
7. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. –T., 2004. –60 б.
7. Bafoyeva N. Translation difficulties of abdulla kahhar 's essay "thief" into english //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – T. 4. – №. 05. – C. 60-63.
8. Bakhronovna G. R. The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 237-242.
9. Jiyankulova J. L. Til, millat va madaniyat munosabati //The theory of recent scientific research in the field of pedagogy. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 39-43.
10. Saidova R. A. Semiotic square and binary opposition //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 201-205.